

**BUYUK BRITANIYADA IJTIMOIIY MADANIY  
ANTROPOLOGIYA FANINING O'QITILISH TIZIMI**

**O. M. Xayritdinov**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Magistratura 2-bosqich talabasi*

*E-mail: [otabekxayritdinov99@gmail.com](mailto:otabekxayritdinov99@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Buyuk Britaniyada ijtimoiy madaniy antropologiya fanining shakllanish tarixi o'ziga xosligi bilan ajralib turishi bilan bir qatorda, ushbu fanning mamlakat ta'lim tizimida o'rgatilishi va jamiyat rivoji uchun keng maqsadlarga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Britaniya antropologiyasi o'qitilish tizimining qisqacha tarixi hamda hozirgi mamlakatda ushbu sohada ta'lim qanday olib borilishi haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy-madaniy antropologiya, Buyuk Britaniya, tanqidiy fikrlash, RAI(royal anthropological institute), o'rta ta'lim, oliy ta'lim.

Madaniy antropologiya akademik fan sifatida inson madaniyati, jamiyati va xulq-atvorining murakkabliklarini o'rganadi. Madaniy antropologiyani o'rganish odamlarni hayotning turli jabhalarida foydali bo'lgan qimmatli ko'nikmalar va bilimlar bilan ta'minlaydi. Universitet o'quv dasturlariga madaniy antropologiyaning kiritilishi fanning talabalarga insoniyat jamiyatlarining boy jihatlarini tushunish uchun keng qamrovli vositalar to'plamini taqdim etadi. Antropologiya, umuman olganda, turli madaniyatlar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga, madaniyatlararo tushunish rivojlantirishga intiladi.<sup>1</sup>

Buyuk Britaniya universitetlarida madaniy antropologiyani o'qitish turli madaniyatlarni chuqurroq anglashda, tanqidiy fikrlashni rag'batlantirishda va talabalarni global miqyosda o'zaro bog'langan dunyoga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Buyuk Britaniyada Qirollik antropologiya instituti, universitetlar va antropologiyani o'rgatish uchun maxsus yaratilgan platformalar bugungi kunda madaniy antropologiyani o'qitishni qo'llab-quvvatlaydigan asosiy manbalar hisoblanadi.<sup>2</sup>

Qirollik antropologiya instituti (RAI): RAI Buyuk Britaniyadagi antropologlar uchun yetakchi professional uyushma hisoblanadi. Ular o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanmalari, dars rejalari va keng qamrovli etnografik filmlar kutubxonasiga kirishni o'z ichiga olgan bir qator resurslarni taklif qiladilar.<sup>3</sup>

Universitetlarda antropologiyaning o'qitilishi: Buyuk Britaniyadagi antropologiya dasturlari bo'lgan ko'plab universitetlar o'z talabalari uchun onlayn o'quv materiallari, o'qish ro'yxatlari va maxsus ma'lumotlar bazalari va jurnallariga kirish kabi maxsus resurslarni taklif qilishadi.

Ammo, antropologiya fanining shakllanishi ancha uzoq vaqt talab qilgan

<sup>1</sup> Alan Bernard History and theory of anthropology Cambridge university Press 2004

<sup>2</sup> Kuklick, H. (1992) The Savage Within, Cambridge: Cambridge University Press(forthcoming) 'Islands in the Pacific: Darwinian Biogeography and British Anthropology', American Ethnologist

<sup>3</sup> Britaniya Qirollik antropologiya institute rasmiy sahifasini o'rganish asosidagi ma'lumot

bo'lsada, bu fanning Britaniya oliy ta'lim tizimida orgatilishi boshlanganiga hali ko'p bo'lmadi. Universitetlar psixologiya va ingliz adabiyoti kabi fanlardan ko'ra antropologiyani qabul qilishni istamagan, ammo, Britaniyalik antropologlar tomonidan antropologiyani keng miqiyosda kiritilishiga erishish qahramonlik sifatida qaralgan<sup>4</sup>

Dastlab Buyuk Britaniyadagi bir nechta universitetlar o'zlarining akademik dasturlari doirasida madaniy antropologiyani taklif qilishadi. Xususan, 1930-yillarda Oksford, Kembrij va London universitetlari dastlab antropologiya fani o'quv dasturlariga kiritla boshlangan. Ushbu oliygohlarda hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan kam sonli oliygohlar ekanligi hamda ushbu universitetlarda asosiy lavozimlarni ko'proq jisminoiy antropologlar egallagani uchun asosiy etibor inson anatomiyasini o'rganishga qaratilgan. Shu sababli ijtimoiy antropologiyaning ilmiy asosga ega bo'lish jarayoni uzoq va murakkab jarayon kechgan. Antropologiya bo'yicha birinchi professorlik 1895 yilda Edvard Taylorga berilgan bo'lsa-da, ijtimoiy antropologiya sohasida 1936-yilga kelib Radklif Braunga Oxford universiteti professorligi berilgan. Dastlab oliy ta'limdan keying ta'lim shaklida o'qitilishni boshlagan ushbu fan, 1950-yillardan boshlab Kembrij<sup>5</sup> va 1990-yildan boshlab esa Oksford universitetlarida bakalavr darajasida o'qitila boshlandi. Madaniy antropologiyani o'z o'quv dasturlariga kiritadigan taniqli muassasalar qatoriga Oksford universiteti, Kembrij universiteti, London iqtisodiyot va siyosatshunoslik maktabi (LSE), Manchester universiteti va Edinburg universiteti va boshqalar kiradi. 1970 yildan 1994 yilgacha berilgan 950 ta fan nomzodining yarmi Oksford, Kembrij va LSE kabi uchta kafedradan edi. Bugungi kunda ushbu universitetlar orasidan Kembrij bitiruvchilari Britaniya universitetlarida antropologiya bo'yicha ma'ruzalarning 25 foizini o'qiydilar<sup>6</sup>.

Bugungi kunda Buyuk Britaniyada madaniy antropologiya bo'yicha ta'lim berish bir necha bosqichda amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu mamlakat ta'lim tizimi turli yosh guruhlari va akademik qiziqishlar va intilishlarga javob bera oladigan turli darajadagi madaniy antropologiyani taklif etadi.

Ulardan birinchisi o'rta ta'lim bosqichi hisoblanadi(11-16 yosh). Madaniy antropologiya odatda o'rta ta'lim tizimida mustaqil fan emas. Biroq, uning elementlari sotsiologiya, tarix yoki geografiya kabi fanlarga kiritilgan. Ular butun dunyo bo'ylab turli madaniyatlarni o'rganishga, Buyuk Britaniyadagi madaniy xilma-xillikni tushunishga va globallashuvning madaniy amaliyotlarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Ijtimoiy antropologlar assotsiatsiyasining (ASA) universitetlarda antropologiyani o'qitish bo'yicha tashkil qilingan birinchi konferensiyasi 1958 yilda bo'lib o'tgan. Ushbu konferensiyada ko'rib chiqilgan asosiy masalalar asosan maktablarda antropologiyani o'qitishga qaratilgan edi. Ushbu fanning maktab ta'limiga kiritilishi yoqki yoqligi xususidagi dastlabki munozaralarni Londonning Bedford kollejida 1973 yilning aprel oyida o'tkazilgan konerensiya natijalari yuzasidan tayyorlangan "The Social Science Teacher" ilmiy to'plamda uchratishimiz mumkin. Ushbu konferensiya doirasida so'z olgan Edmund Lich maktab ta'limida

<sup>4</sup> Leach, E.R. (1984) 'Glimpses of the Unmentionable in the History of British Social Anthropology', Annual Review of Anthropology13:1-23

<sup>5</sup> Kembrij universiteti rasmiy shifasi antropologiya bo'limidan olingan ma'lumot

<sup>6</sup> SPENSER-NEWSLETTER SPRING-SUMMER 2000 • VOLUME 31 • NUMBER 2

antropologiyaning tarbiyaviy ahamiyati hamda, agar ushbu fan maktab ta'limida o'rgatilsa o'quvchi va o'qituvchilar duch kelishi mumkin bo'lgna muammolar haqida aytib o'tgan.<sup>7</sup>

Buyuk Britaniyada antropologiyani o'rganish bo'yicha keying bosqich universitetlar antropologiya bo'yicha ko'plab bakalavriat, magistratura va aspirantura dasturlarini taklif etadi, bunda madaniy antropologiyaga katta e'tibor beriladi. Ushbu dasturlar mavzuni chuqurroq o'rganishni, talabalarni tanqidiy fikrlash, tadqiqot va tahliliy ko'nikmalar bilan ta'minlaydi

Buyuk Britaniyada ijtimoiy-madaniy antropologiya va etnologiyani o'rganish asosan universitet darajasida, odatda antropologiya, sotsiologiya yoki tegishli sohalaridagi bakalavriat va aspirantura dasturlari doirasida taklif etiladi. Antropologiya o'rta ta'limda majburiy fan bo'lmasa-da, u ko'pincha o'quv rejasiga tanlov sifatida yoki fanlararo ijtimoiy fanlar kurslarining bir qismi sifatida kiritiladi. Kembrij universiteti, Oksford universiteti va London Iqtisodiyot maktabi kabi universitetlar turli akademik kelib chiqishi talabalarni jalb qiladigan taniqli antropologiya dasturlarini taklif qiladi. Bu dasturlar qarindoshlik, din, siyosat, iqtisod va globallashuv kabi keng ko'lamli mavzularni qamrab olgan bo'lib, talabalarga insoniyat jamiyatlari va madaniyatlari haqida har tomonlama tushuncha beradi.<sup>8</sup>

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. The Social Science Teacher 1973 VOLUME 3 NUMBER 1 Editor CHARLES TOWNLEY
2. SPENSER-NEWSLETTER SPRING-SUMMER 2000 • VOLUME 31 • NUMBER 2
3. Kuklick, H. (1992) The Savage Within, Cambridge: Cambridge University Press (forthcoming) 'Islands in the Pacific: Darwinian Biogeography and British Anthropology', American Ethnologist
4. Leach, E.R. (1984) 'Glimpses of the Unmentionable in the History of British Social Anthropology', Annual Review of Anthropology
5. Alan Bernard History and theory of anthropology Cambridge university Press 2004

<sup>7</sup> The Social Science Teacher 1973 VOLUME 3 NUMBER 1 Editor CHARLES TOWNLEY p 3-13

<sup>8</sup> Oxford universitetining MSc/MPhil in Social Anthropology – Handbook 2021-22 – Version 6.0 ga muvofiq